

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA “EKOLOGIK SO‘QMOQ”  
TASHKIL ETISH ORQALI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI  
SHAKLLANTIRISH**

**Eraliyeva Zamira Rasuljonovna<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> *Qo‘qon universiteti katta o‘qituvchisi*  
[zamirahoneraliyeva22@gmail.com](mailto:zamirahoneraliyeva22@gmail.com)

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 28.06.2025*

*Revised: 29.06.2025*

*Accepted: 30.06.2025*

**ANNOTATSIYA:**

**KALIT SO‘ZLAR:**

*Ekalogiya, yashil  
hudud, ekologik so‘qmoq,  
axloq qoidalari, ekologik  
ong.*

*Maqolada maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari o‘rtasida ekalogiya, borliq va tabiatni asrashga, sevishga qaratilgan holatlarni ko‘rish mumkin. Bola tarbiyasida tabiatni o‘z o‘rnini borligi va undan oqilona foydalanishni tushuntirish zarurligi Prizident farmonlari va uning ijrosi haqida yoritilgan. “Ilk qadam o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta‘lim tashkilotlardagi ekologik ishlar rejasi sayrdagi, tabiat bilan tanishtirish faoliyatlarini to‘g‘ri tashkillash ishlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.*

**KIRISH.** O‘sib keayotgan yosh avlod o‘g‘il qizlarimizni voyaga yetishi, jamiyatimiz hayoti va butun yer yuzi taqdiri uchun ma‘suliyatli vazifadir. Shuning uchun ham ularning har birida tabiatga muhabbat, barcha tirik mavjudotlarga hurmat, tabiatdagi xatti-xarakatlari oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish tuyg‘ularini tarbiyalash juda muhimdir. Muhtaram Prizitentimiz Shavkat Mirziyayev Miromonovich Oliy majlis qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida 2025 yilning yurtimizda “Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilingani yangi O‘zbekistonda maktabgacha yoshdan tortib keksa insonlarga qadar ona tabiatni asrab avaylab, ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilyotgan yuksak e’tiborning ifodasi bo‘ldi. O‘zbekistonning go‘zal tabiatni, toza havosi, zilol va shifobaxsh suvlari bizlarga zavq bag‘ishlab kelgan. Ammo yillar davomida sanoatning rivojlanishi, atrof muhitning ifloslanishi, suv taqchilligi kabi muommolar dolzarb muommo bo‘lib kelmoqda. Bu masalalarga yechim topish maqsadida “Yashil makon” loyihasini hayotga

jalb etildi. Bu loyiha yordamida tevarak atrofimizda yashil hududlar kengayib, yashil qalqonlarni ko‘payishi ona tabiatimizni asrab avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazishga muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimizning ta’kidlashicha, bu yildan boshlab har bir fuqaroda, ayniqsa yoshlarda tabiatga mehr, ekologik ong va madaniyatni shakllantirish zarur. Xususan, maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tarbiya bolalarning tabiat bilan ilk muloqot nuqtasidan boshlanadi. “Ilk qadam” o‘quv dasturida tabiiy olamni idrok qilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar, kuzatishlar, tajribalar ko‘zda tutilgan. Mazkur maqlolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda “Ekologik so‘qmoq”lar tashkil etishning ahamiyati tahlil qilinadi. Maktabgach ta’lim tashkilotlarda “yashil hudud”larning tashkil etilishi esa bolalarga ilk yoshdan boshlab ona tabiatga mexr hissini uyg‘otadi.

**Metodologiya.** Butun dunyoning global ekologik, atrof olam haqidagi muammolari O‘zbekiston uchun ham dolzarbdir. Ekologik ta’lim sifatini o‘zgartirmasdan ekologik muammolarga yechim topish mumkin emas. Ilmiy tadqiqotlar shuni isbotladiki, bolaning eng jadal rivojlanishi maktabgacha yoshdan boshlanadi. Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Yurtimizda maktabgacha ta’lim sohasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim, davlat ta’lim standarti, maktabgacha ta’lim konsepsiyanining ishlab chiqarishi va tadbiq qilinishi umumiylar pedagogic jarayonni muhim qismidir. “Ilk qadam” o‘quv dasturida yillik, oy va hafta mazulari ham tabiat bilan bog‘langanligi tabiat markazlarida olib boriladigan tajribalar bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini boyitish rivojlanishi uchun muhim o‘rin tutadi. Honalarni mavzularga moslashtirib jihozlash faqat mavzularni tushuntirish uchun qulay, ularni tabiat haqidagi fikr dunyolarini boyitish uchun bu kamlik qiladi. Ularni borliq haqidagi bilimlarini boyitish maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan tasdiqlangan va nashr etishga tavsiya qilingan “Yer sayyorasi – bizning umumiylar uyimiz” mavzusidagi ekologik ta’lim va tarbiya bo‘yicha parsial dastur ishlab chiqildi.

Dasturda hozirgi kunda maktabgacha ta’lim pedagogikasida bolalarning ekologik tarbiyasiga katta e‘tibor berilganligi, ekologik-o‘lkashunoslik tushunchalarini shakllantirishning muhim shartlaridan biri – bu bolalarning tabiat hodisalari va obyektlarini bevosita kuzatishi takidlangan. Shu sababli bolalarga jonli tabiat bilan bevosita muloqot qilish, o‘simplik va hayvonlarni kuzatish imkoniyatini yaratish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari maydonida o‘sadigan o‘simpliklar bolalar uchun ma‘lumotga boy material,

pedagog uchun esa ekologik tarbiyani to‘laqonli amalga tatbiq etish imkoniyatini taqdim etadi.

Dasturda maktabgacha ta‘lim tashkiloti hududida “Ekologik so‘qmoq”lar tashkil etish tavsiya etilgan. Ekologik so‘qmoq – bolalar ta‘lim tarbiyasining zamonaviy shakli bo‘lib, ekologik ahamiyatli makonda, turli tabiat obyektlari orqali o‘tgan yo‘nalishda ishslash hisoblanadi. O‘simlik va hayvonlar, ularning yashash makonlari, tabiat landshaftlarining o‘ziga xos tomonlari va hokazolar bilan tanisha turib, bolalar o‘z dunyoqarashini kengaytiradilar, yo‘lning mo‘ljalini olishni o‘rganadilar.

Tadqiqotda sifatli pedagogik tahlil usuli qo‘llanildi. “Yer sayyorasi – bizning umumiy uyimiz” parsial dasturi, “Ilk qadam” davlat dasturi, ekologik ta‘limga oid normativ-huquqiy hujjatlar, hamda mavjud tajribalar asosida ekologik so‘qmoq tashkil etishning tarkibiy qismlari va ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ekologik so‘qmoqlarni tashkil etish bo‘yicha *kuzatuv* va *kuzatuvchi savolnomalar* orqali bolalar va tarbiyachilar faoliyatiga baho berildi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida “Ekologik so‘qmoq” yaratishdan asosiy maqsad – maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongi rivojlantirish. Undagi tarbiyaviy vazifasi tabiatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirishdan iborat. Bolada tabiatga bo‘lgan muhabbat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi –unu uyg‘otish kerak. Bunda bolalarning tabiat bilan bevosita muloqot tajribasi, juda muhim. Ekologik so‘qmoqda *kuzatuv* olib borgan bolalar ona tabiatni o‘rganib, uning go‘zalligiga guvoh bo‘ladilar, har bir tur ekologik tizimning muhim bo‘g‘ini ekanligini anglay boshlaydilar. Barcha tirik va notirik tabiatning birligini anglash asosida to‘g‘ri shakllangan ongli ekologik axloq yotadi. Ekologik so‘qmoqni yaratish va obodonlashtirishdagi umumiy ishlarda qatnashish bolalarni mehnatga o‘rgatadi, ularda javobgarlik, o‘zgalar hamda o‘z mehnatiga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish hissini uyg‘otadi. Ekologik so‘qmoq o‘zining sog‘lomlashtiruvchi vazifasini aqliy va jismoniy yuklamalarni tabiat qo‘ynidagi hordiq bilan uyg‘unlashtitirish orqali bajaradi. Ekologik so‘qmoqda harakatlanish davomida bolalar ekologik tizimlar, tabiat obyektlari, jarayonlari va hodisalari haqida ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar. Ekologik so‘qmoq bo‘ylab qilingan ekskursiya bilim, hordiq va tabiat go‘zalligidan bahra olishni o‘zida mujassam etib, ma‘lumotlarni qabul qilish samaradorligi ijobjiy his-tuyg‘ularning kuchli quvvati bilan ortadi.

Zamonaviy bolalar tabiat bilan muloqot qilish imkoniyatidan nihoyatda chegaralangan, shu sababli, ishning ekologik ta‘lim-tarbiyadagi muhim vazifalaridan biri bolalarni yaqin atrofdagi tabiat obyektlari bilan tanishtirishdir. Dasturdan kelib chiqib maktabgacha ta‘lim


tashkilot hududlarida ham “Yashil so‘qmoqlar” tashkil etilib, bunda bolalar uchun *ertaknamo uychalar, lanshaftli yo‘laklar, ko‘lmakchali suv havzalari, ertak qahramonlari, manzarali daraxtlar, noyob o‘simliklar turlari, toshlardan maxsus yaratilgan tog‘lar, jonli tabiat uchun yaratilgan muhit va undagi jonzot va hashorotlardan* bolalar zavq olib yaqin atrofdagi tabiat bilan tanishib borishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ekologik so‘qmoqda ishslash davomida bolaning hissiy muhitida rivojlanish kuzatiladi, shuningdek, “tabiatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish haqidagi” bilim va tasavvurlari shakllanadi. Quyida berilgan qoidalarga asoslanib, “Yashil so‘qmoqlar” bilan tanishuv jarayonida tarbiyachi tomonidan qoidalalar eslatilib, bolalarda katta qiziqish uyg‘otish bilan birga, axloq qoidalari ham shakllanib boradi.

- Qushlar sayrashi va tabiatning boshqa tovushlaridan braha oling. Kuzating, zavq oling va fikrlang.

- Ortiqcha shovqinlarsiz yurib o‘ting. So‘qmoqda yashovchilarga halaqit bermang.
- O‘simliklarni asrang, shoxlarni sindirmang, hasharotlarni tutmang.
- Tozalikka rioya qiling. Axlatlarni maxsus chiqindi idishiga tashlang!
- Tabiatni asrang! Tabiatni sevinglar – MTT ekologik so‘qmog‘idagi chiroyli toshlarni olib ketmang.

- Olgan bilim va taassurotlaringiz va xush kayfiyatizingizni do‘stlaringizga ham ulashing.

**Natijalar.** Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ekologik so‘qmoqlar bolalarning tabiat bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotini ta’minlaydi. Bolalarda ekologik ong va axloqiy qoidalarga nisbatan ongli munosabat shakllanadi (*masalan: shovqin qilmaslik, o‘simliklarni asrash, axlatni idishga tashlash*). So‘qmoq hududlarida joylashtirilgan ertak qahramonlari, landshaft elementlari va noyob o‘simliklar bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Bolalar o‘simlik va hayvonot dunyosi bilan bog‘liq bilimlarga ega bo‘lib, o‘z kuzatishlari orqali tabiatdagi uyg‘unlikni tushunishni boshlaydi. Umumiy obodonlashtirish ishlarida ishtirok etish orqali bolalarda mehnatsevarlik va mas’uliyat hissi rivojlanadi.



O'tkazilgan kuzatuvlar va tahlillar asosida aniqlanishicha, mакtabgacha ta'lif tashkilotlarida ekologik so'qmoq tashkil etish quyidagi asosiy natijalarni berdi:

- Ekologik axloq qoidalarini o'zlashtirish* darajasi 91% bolalarda namoyon bo'lib, ular "shovqin qilmaslik", "o'simliklarga zarar yetkazmaslik" kabi amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirgan.
- Mehnatga bo'lgan munosabat va mas'uliyat hissi* 84% bolalarda shakllanib, ular ekologik so'qmoqni obodonlashtirishda faol ishtirok etgan.
- Tabiatni asrashga ongli munosabat* 89% holatlarda kuzatilgan, bu esa bolalarda ekologik ong va axloqiy qarashlarning shakllanishini ko'rsatadi.
- Bilim olishga qiziqish* 76% bolalarda ortib, ularning tabiiy jarayonlarga oid savollar soni va tajriba olib borishga bo'lgan ishtiyoqi oshgan.

Ushbu natijalar asosida ko'rinish turibdiki, estetik did va kuzatuvchanlik 79% bolalarda kuchayib, ular tabiatdagi go'zalliklarni ajratish, ranglar va shakllarga e'tibor berishni o'rgangan. Yana aytishimiz mumkinki, tirik tabiat bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati bolalarning 87%ida ekologik sezgirlik, tabiatga qiziqish va jonli mavjudotlarga nisbatan ehtiyyotkorlikni rivojlantirdi.

**Muhokama.** Ekologik so'qmoq – bu nafaqat didaktik makon, balki bolalar uchun hayotiy tajriba makonidir. Ular orqali bola tabiatni o'zining bir qismi sifatida his etishni

boshlaydi. Bolalarning ekologik tarbiyasi bu faqat nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish emas, balki hissiy, amaliy va axloqiy tajribalarni o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir. Dastur asosida tashkil etilgan ekologik so‘qmoqlar bolalarda kuzatuvchanlik, estetik did va analitik tafakkurni ham rivojlantiradi. Bolaning ekologik madaniyati bola yoshligidan boshlab shakllanishi, va bu jarayon butun jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Ekologik so‘qmoqlar, nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, balki ularning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga ham katta hissa qo‘shmoqda. Jadvalda taqdim etilgan raqamlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik tarbiyada nazariy yondashuvlardan tashqari, amaliy muloqot shakllari muhim rol o‘ynaydi.

Bolalar ekologik so‘qmoqda tabiat bilan muloqot qilish davomida *kuzatish, taqqoslash, tahsil qilish, umumlashtirish* kabi kognitiv faoliyatni bajaradilar. *Axloqiy qadriyatlар* esa xususan, tabiatga hurmat, sabr, birdamlik va mas’uliyat kabi hislar mustahkamlanadi. *Sog‘lomlashtiruvchi ta’sir* – ekologik so‘qmoq bo‘ylab harakat, toza havo, vizual go‘zalliklar psixofiziologik holatni yaxshilaydi. *Estetik sezgirlik* – rang, shakl, tovush, hid kabi sezgilar orqali tabiatni idrok qilish chuqurlashadi.

**XULOSA.** Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak maktabgacha ta‘lim tashkiloti hududida tashkil etilgan har qanday muhit va sharoitlar bola uchun juda ham zavqli bo‘ladi. Bolaning ona tabiatga bo‘lgan mehri olgan yangi bilim va ko‘nikmalaridan kelib chiqadi. Uning axloq qoidalari haqidagi bilimlari mustaxkamlanadi va yon- atrofidagi o‘simgilik va mavjudotlarga beetibor bo‘lib qolmaydi. Shuning uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotining barcha ishchi hodimlari birdek tabiatga g‘amxo‘r bo‘lib uni asrab avaylab bolalar uchun o‘rnak bo‘lishi lozim.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. Qayd etish № 3032, 03.07.2018-y
2. Grosheva I.V., Shivaldova N.S., Rizayeva X.U., Kuryayeva I.V., Nekrasova E.A., Xaziyeva L.Z.// “Yer sayyorasi – bizning umumiylar”//Toshkent-2022.
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – T.: MTTV, 2020.
4. Махмудова Г.Х. Экологическое воспитание детей дошкольного возраста. – Ташкент, 2021.
5. Hasanova Z. Ekologik madaniyat asoslari. – Samarqand, 2022.
6. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna. (2024). IN MTT’S PREPARATORY GROUPS FOR SCHOOL, CHILDREN ARE TAUGHT TO THINK LOGICALLY AND TO FIND

SOLUTIONS IN CONTROVERSIAL SITUATIONS AND ARTISTIC SPEECH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(6), 34–38. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/3412>

7. Z. R. Eraliyeva. (2024). ERTAKLARNING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(6), 25–28. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/3410>

8. Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Djo'rayeva Dildoraxon Rahmonaliyevna. (2023). BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AYRIM DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 184–186. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.866>

9. Eraliyeva, Z. (2023). MTT NING MAKTABGA TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MANTIQIY FIKRLASH VA BAHS MUNOZARALI VAZIYATLARDА YECHIM TOPISHGA VA BADIY NUTQQA O'RGATISH. Talqin va Tadqiqotlar, 1(18). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/19>

10. Юлдашева, Д. М., & Эралиева, З. Р. (2023). "БОЛАЛИК" КОНЦЕПТИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ. Research Focus, 2(2), 226-228.

11. Yuldasheva Dilafruz, Jabborova Marifatxon, Eraliyeva Zamira Rasuljonovna, & Maziayayeva Muqaddasxon (2022). MAKTABGACHA TA'LIMGA YANGICHA YONDASHUV. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 3), 121-125.